Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha yangi talablar muhokama qilindi

// 10 August 2026 yil
https://pda.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/korrupsiyaga-qarshi-kurashish-bo-yicha-yangi-talablar-muhoka



“O‘zkimyosanoat” AJ Korrupsiyaga qarshi kurashish boshqarmasi tashabbusi bilan tarmoq korxonalarida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish samaradorligini yanada oshirishga qaratilgan tadbir tashkil etildi.

Unda “Maxam-Chirchiq”, “Ammofos-Maxam” va “Navoiyazot” AJlar boshqaruv raislari, ularning o‘rinbosarlari hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘linmalari xodimlari ishtirok etdi.



Tadbirda Prezidentimizning 2025-yil 30-dekabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmoni hamda 2026-yil 22-iyunda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini oshirishga, korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun javobgarlik muqarrarligini ta’minlashga qaratilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi qonuni mazmun-mohiyati atroflicha muhokama qilindi.

Xususan, mazkur hujjatlarda korrupsiyaga qarshi ichki tuzilmalar faoliyati samaradorligini oshirish, ularning mustaqilligini ta’minlash va vakolatlarini kengaytirish, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni barvaqt aniqlash hamda ularning oldini olish bo‘yicha belgilangan vazifalarga alohida e’tibor qaratildi.



Shuningdek, davlat xaridlarini amalga oshirish jarayonida mablag‘larni asosli va maqsadli sarflash, korrupsiyaviy xavflarni minimallashtirish, manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik hamda belgilangan qonunchilik talablariga qat’iy rioya etish masalalari bo‘yicha ishtirokchilarga tegishli tushuntirishlar berildi.

Tadbir yakunida tarmoq korxonalarida korrupsiyaga qarshi komplayens tizimini yanada takomillashtirish, korrupsiyaviy holatlarning oldini olish va bu borada xodimlarning huquqiy xabardorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni izchil davom ettirish zarurligi ta’kidlandi.